

# **Fuqaro Aviatsiyasi Agentligini yubileyi bilan chin qalbimizdan tabriklaymiz**

**2023 16 Iyun**

“Uzbekistan Airways” AJ parvozlar xavfsizligini nazorat qilish Davlat inspeksiyasini, hozirgi O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi agentligini tashkil etilganining 25 yilligi bilan samimiy tabriklaydi.

Sizga mamlakatimiz havo hududidan foydalanuvchilarning xavfsiz foydalanishini ta'minlash, fuqarolik va eksperimental aviatsiya sohasida davlat nazorati hamda kuzatuvini amalga oshirish bo'yicha mas'uliyatli vazifa yuklangan.

Agentlik tashkil topgan kunidan boshlab aviatsiya sohasida mehnat qilishga o'zini bag'ishlagan hamfikrlar, o'z sohasining mutaxassislari jamoasini jamlagan. Tashkilotning har bir xodimi haqli ravishda kasbga sadoqatlilik, aviatsiya sohasida chuqr bilim, katta amaliy tajribaga ega. O'tgan yillar davomida ulkan ishlar amalga oshirildi, bu esa salmoqli yutuq va muvaffaqiyatlar, kelajak uchun jiddiy rejalar borligini bildiradi. O'zbekiston ICAO auditidan muvaffaqiyatli o'tdi. Xalqaro tashkilot ekspertlari tomonidan O'zbekistonda parvozlar xavfsizligi tizimining ishlashini baholash bo'yicha kompleks audit o'tkazilib, ijobiyl xulosa chiqarildi. Bunda, albatta, Fuqaro Aviatsiyasi Agentligi jamoasining salmoqli hissasi bor!

Yubileyingiz bilan tabriklaymiz! Sizga mustahkam sog'liq va baxt, barcha ishlaringizda yanada muvaffaqiyatlar, rejalaringizni amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasi farovonligi yo'lidagi mas'uliyatli faoliyatningizda yangi yutuqlar tilaymiz!